

Siz — Dehli markazidasiz

TOP-20

Nimalar qilish mumkin?

- ☐ Dehlining tarixiy qismi (Old Delhi) bo'ylab velorikshalarda sayr qilish
- ☐ Yangi Dehli (New Delhi), britaniyaliklar qurgan kolonial markazni ko'zdan kechirish
- ☐ Qizil qal'a (Lal-Kila) mahobatidan hayratlanish
- ☐ Akshardham hinduiylik ibodat majmuasining beqiyos salobatidan hayajonlanish
- ☐ Dunyodagi eng baland g'ishtin minora – 73 metrli Qutb-Minorni tomosha qilish
- ☐ Temur zurriyotlaridan Humoyun maqbarasi va Sander Nerseri bog'iga tashrif buyurish
- ☐ Dunyoning eng yirik masjidlaridan biri – Jama Masjidga kirish
- ☐ Lotus ibodatxonasi – eshiklari barcha din vakillari uchun ochiq bo'lgan gul shaklidagi ibodatxonani ko'rish
- ☐ Gurudvara Bangla Sahib sikh ibodatxonasi hududidagi hovuz bo'yida o'tirish
- ☐ Hindiston darvozasi va dunyoda eng yiriklardan biri bo'lgan Rashtrapati Bhavan prezident saroyi fonida suratga tushish
- ☐ Hindiston Milliy muzeyida vaqt bo'ylab sayohat qilish
- ☐ Osoyishta Lodi bog'larida hordiq chiqarish
- ☐ Qadimiy Agrasen Ki Baoli qudug'i zinapoyalarida o'tirish
- ☐ Sershovqin Chandni Chowk savdo hududini yoqtirish yoki yoqtirmaslik
- ☐ Main Bazar bozor va savdo ko'chalari koloritiga sho'ng'ish
- ☐ Savdo markazlarida xarid qilish: Central Cottage Industries Emporium, Select Citywalk, Ambience Mall va boshqalar
- ☐ Connaught Place hududida butiklar, restoranlar, savdo markazlari va Markaziy bog'da sayr qilish
- ☐ Mahalliy ko'cha taomlarini tatib ko'rish. Diqqat: juda achchiq!
- ☐ Dehli barlari, bozorlari va musiqalar yangrab turuvchi tungi hayotiga sho'ng'ish
- ☐ Mashhur Toj Mahal joylashgan Agra shahriga ekskursiyaga borish




 **CENTRUM**
HOLIDAYS

CENTRUMAIR




Nimalarni olib kelish kerak?

- Xushbo'y tutatqi va ziravorlar: karri, qalampimunchoq, butun va maydalangan qalampir, za'faron
- Mahalliy kiyim-kechak va matolar
- Mahalliy parvarishlovchi kosmetika
- Ayurveda mahsulotlari: choylar, o'simlik aralashmalari, efir moylari
- Taqinchoqlar



Nimalarni tatib ko'rish kerak?

- Hindcha karri
- O'nlab kabob turlari
- Tovuqli taomlari: chicken-tikka, tanduri-chicken, butter-chicken
- Achchiq dal (dhal) sho'rvasi
- Sut va ziravorli masala choyi

